

MEHMONXONA INDUSTRIYASIDA YASHIL STANDARTLAR: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Adilova Zulfiya Djavdatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrası professori, i.f.d.

E-mail: z.adilova.2020@gmail.com,

Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti bosh mutaxassisi, i.f.f.d., PhD

E-mail: lajlobekmurodova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada mehmonxona industriyasida yashil standartlarni joriy etishning xalqaro tajribalari hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Ekologik sertifikatlash tizimlarining ta'siri, barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unligi va milliy strategiyalar bilan bog'liqligi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tahlil natijalari yashil standartlar orqali mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ekologik mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil standartlar, mehmonxona industriyasi, barqaror rivojlanish, ekologik menejment, sertifikatlash tizimlari.

Аннотация

В статье рассмотрены международный опыт внедрения зелёных стандартов в гостиничную индустрию и перспективы их применения в условиях Узбекистана. Проанализировано влияние экологических систем сертификации, их соответствие целям устойчивого развития и связь с национальными стратегиями. Результаты исследования показывают, что внедрение зелёных стандартов способствует повышению качества обслуживания в гостиницах, усилению конкурентоспособности и формированию экологической ответственности.

Ключевые слова: зелёные стандарты, гостиничная индустрия, устойчивое развитие, экологический менеджмент, системы сертификации.

Abstract

The article analyzes international practices of implementing green standards in the hotel industry and explores their applicability in Uzbekistan. The study assesses the impact of ecological certification systems, their alignment with sustainable development goals, and integration with national strategies. Findings show that green standards enhance service quality, strengthen competitiveness, and promote environmental responsibility in the hospitality sector.


Keywords: green standards, hotel industry, sustainable development, environmental management, certification systems.

Bugungi kunda ekologik tashabbuslarni joriy etish korxonalar uchun o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beruvchi muhim omil bo'lib, bu

mehmonxona reytingini ko'tarish va xarajatlarni optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. "Yashil" rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy mehmonxona va restoran industriyasida yangi norma sifatida shakllanib, u kommunal resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat chiqindilarini qisqartirish va natijada operatsion xarajatlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish tamoyillari, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejovchi texnologiyalarga o'tish, inson resurslariga g'amxo'rlik qilish va inklyuziv muhitni shakllantirish kabi masalalarni o'zida mujassam etib, zamonaviy mijozlar talablari bilan uyg'unlashadi. Mazkur tashabbuslar korxonalarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirib, ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehmonxona industriyasi nafaqat turistik xizmatlar ko'rsatish, balki tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi zarur. Yashil standartlarning joriy etilishi mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ekologik mas'uliyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mehmonxona biznesida yashil standartlar joriy etilishi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan uzviy bog'liq. Xususan, 7-Maqсад (Toza energiya), 12-Maqсад (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) va 13-Maqсад (Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) mehmonxona sohasidagi ekologik menejmentning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Shu ma'noda, yashil iqtisodiyot talablari mehmonxona infratuzilmasini qayta qurish va modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda [5, p -113].




1- rasm. Mehmonxona industriyasida qo'llaniladigan xalqaro yashil sertifikatlar ulushi.¹

Xalqaro amaliyotda turli xil ekologik sertifikatlash tizimlari mehmonxona industriyasida keng qo'llanilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – mehmonxonalarda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy qilish, tabiiy resurslardan tejamkor

¹ Muallif ishlanmasi

foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishdir. Bugungi kunda dunyo miqyosida eng keng tarqalgan sertifikatlar qatoriga LEED (Leadership in Energy and Environmental Design), Green Key, EU Ecolabel va EarthCheck tizimlari kiradi [2, p-184-185]. Quyidagi diagrammada ushbu xalqaro sertifikatlarning mehmonxona sohasidagi taxminiy ulushi ifodalangan (1-rasm).

Diagrammadan ko'rinib turganidek, mehmonxona industriyasida eng keng tarqalgan tizimlar qatorida LEED va Green Key yetakchi o'rinni egallaydi, chunki ular resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq mezonlarga ega. EU Ecolabel asosan Yevropa mamlakatlarida keng joriy etilgan bo'lib, ekologik standartlarni davlat siyosatlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. EarthCheck esa Osiyo va Avstraliya mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, turistik obyektlarning atrof-muhitga ta'sirini monitoring qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois xalqaro sertifikatlash tizimlarining diversifikatsiyasi turli mintaqalarda turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va O'zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni o'rganish muhim hisoblanadi.



2-rasm. Yashil standartlar va Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) uyg'unligi¹.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda yashil standartlarning ahamiyati xalqaro darajada belgilangan bo'lib, ular Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan, *SDG (Sustainable Development Goals) 7 – Arzon va qayta tiklanuvchi energiya* maqsadi mehmonxonalarda quyosh panellari, energiya

¹ Muallif ishlanmasi

tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni talab etadi. *SDG 12 – Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish* maqsadi suv resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash va eko-mahsulotlardan foydalanish orqali turizm sohasida ekologik mas'uliyatni oshirishni nazarda tutadi. *SDG 13 – Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash* maqsadi esa mehmonxona industriyasida uglerod izini kamaytirish, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni cheklash va iqlimga mos infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq [5, p-113].

O'zbekiston ham ushbu global maqsadlarga uyg'un ravishda milliy strategiyalarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi [1], 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi [2] va turizmni rivojlantirish milliy dasturlarida mehmonxona industriyasida resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, ekoturizmni rivojlantirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Quydagi infografikada yashil standartlar, xalqaro SDG maqsadlari va milliy strategiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish ko'rsatilgan (2-rasm).

Infografikada keltirilgan SDG maqsadlari mehmonxona sohasida yashil standartlarni joriy etishning asosiy yo'nalishlarini belgilab, ekologik samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Shu orqali yashil standartlar nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki turistik xizmatlar raqobatbardoshligi va mamlakatning xalqaro nufuziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yashil standartlar – mehmonxona binolarini qurish, faoliyat yuritish va xizmat ko'rsatish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik mas'uliyatni ta'minlashga qaratilgan talablar majmuidir [3, c-51]. Ular mehmonxona sohasida ekologik menejment va korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xalqaro mehmonxona industriyasida yashil standartlarni joriy etish jarayonida turli sertifikatlash tizimlari muhim o'rin tutadi. Ulardan eng nufuzlilari sifatida LEED (AQSH), Green Key (Daniya) va EU Ecolabel (Yevropa Ittifoqi) kabi tizimlarni ko'rsatish mumkin. Bu standartlar mehmonxonalarda energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror iste'molni ta'minlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Quydagi jadvalda ushbu sertifikatlash tizimlarining asosiy yo'nalishlari va mehmonxona industriyasiga ta'siri taqqoslab berilgan (jadval-1).

1-jadval

Xalqaro yashil standartlar tizimlarning taqqoslanishi¹.

Sertifikatlash tizimi	Asosiy yo'nalishlari	Afzalliklari	Mehmonxona industriyasiga ta'siri
LEED (Leadership in Energy and Environmental Design, USA)	Energiya samaradorligi, suv tejash, innovatsion texnologiyalar	Binolar qurilishi va ekspluatatsiyasida barqarorlikni ta'minlaydi, resurslardan tejamkor foydalanish imkonini	Yuqori segment turistlarni jalb qiladi va mehmonxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

¹ Muallif ishlanmasi

Sertifikatlash tizimi	Asosiy yo'nalishlari	Afzalliklari	Mehmonxona industriyasiga ta'siri
		beradi, mehmonxonalarning xalqaro nufuzini oshiradi.	
Green Key (Daniya)	Chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya tejamlorligi, ekologik ta'lim	Turizm sohasiga ixtisoslashgan, xodimlar va mijozlarning ekologik ongini oshiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi, arzon va sodda sertifikatlash jarayoniga ega.	Ekologik turizmni rivojlantiradi va mehmonxonalarning barqarorlik darajasini oshiradi.
EU Ecolabel (Yevropa ittifoqi)	Barqaror iste'mol, mahsulot va xizmatlarda ekologik standartlar	Mehmonxona xizmatlari uchun aniq ekologik mezonlarni belgilaydi, Yevropa bozorida ishonch va brendingni kuchaytiradi, xizmat ko'rsatishda barqarorlikni kafolatlaydi.	Xalqaro bozorda raqobatbardoshlik va mijozlar ishonchini ta'minlaydi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, LEED asosan yirik mehmonxonalar uchun mos bo'lib, energiya va resurs tejamlorligiga e'tibor qaratsa, Green Key amaliyligi va arzonligi bilan O'zbekiston sharoiti uchun eng mos hisoblanadi. EU Ecolabel esa xalqaro turistlar ishonchi va bozordagi nufuzni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy yashil standart modelini ishlab chiqishda ushbu tizimlarning afzal jihatlarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Ekoturizm sohasidagi o'sish va barqaror sayohatning ahamiyati tobora oshib bormoqda. 2023-yilga kelib, global ekoturizm bozori hajmi 219,53 milliard AQSH dollarni tashkil etdi. 2024-yilda bu ko'rsatkich 13,5% ga oshib, 249,16 milliard AQSH dollarni tashkil etishi kutilmoqda. 2028-yilga kelib, bozor hajmi 428,97 milliard AQSH dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston hozirda ekologik toza va barqaror kelajakka intilish yo'lida sezilarli qadamlar qo'ymoqda. Dunyo bo'ylab atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga e'tibor tobora ortib borayotgan bir paytda, uglerod isini kamaytirish zarurati ham keng e'tirof etilmoqda. Mehmonxonalarni "yashil" standartlarga moslashtirish tashabbusi turizm sektoridagi ekologik muammolarni hal etish va mehmonlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatishni maqsad qilgan. Ushbu standartlar energiya samaradorligi, suvni tejash, chiqindilarni boshqarish, ekologik materiallar va usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Natijada, mehmonxonalar ekologik izini kamaytirib, O'zbekistonning tabiiy resurslarini asrashga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabr PQ-4477 sonli "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3. Jayanti, J. Hotel Housekeeping Management. – New Delhi: Goodfellow Publishers, 2023. – 184–185 p.

4. Беляева О.И., Борисова Т.Г., Гварлиани Т.Е., Воробей Е.К., Оборин М.С., Семкина Н.С., Цепилова Е.С. Драйверы устойчивого развития туристских территорий: монография / под общ. ред. Т. Е. Гварлиани. – Москва: Директ-Медиа, 2023. – 276 с. – С. 51.

5. Leal Filho, W. Handbook of Sustainability Science in the Future. – Cham: Springer Nature Switzerland AG, 2023. – 113 p.